



Enforcement and protection of civil rights

Rahimboy YUSUPOV¹, Imomaddin BOLTAYEV², Sherali YULDASHOV³
Shodiya SOBIROVA⁴

Khorezm Region Legal Technical School

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023
Received in revised form
15 September 2023
Accepted 25 October 2023
Available online
15 December 2023

Keywords:

civil rights,
foundations of civil rights,
protection of civil rights,
damages,
lost profits.

ABSTRACT

This article provides information on the creation of civil rights, their implementation and legal protection.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp176-179>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish

Kalit so'zlar:

fuqarolik huquqi,
fuqarolik huquqining
vujudga kelish asoslari,
fuqarolik huquqlarini
himoya qilish,
zarar,
boy berilgan foyda.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan fuqarolik huquqlarining vujudga kelishi, ularni amalga oshirish hamda huquqiy asoslarga ko'ra himoya qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

Обеспечение и защита гражданских прав

Ключевые слова:

гражданские права,
основы гражданских прав,
защита гражданских прав,
ущерб,
упущенная выгода.

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторы предоставляют информацию о возникновении гражданских прав, их реализации и правовой защите.

¹ Teacher of Khorezm Region Legal Technical School.

² Students of Khorezm Region Legal Technical School.

³ Students of Khorezm Region Legal Technical School.

⁴ Students of Khorezm Region Legal Technical School.

Insonlar doimo bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishgan holda yashaydilar. Bu ijtimoiy munosabatlar orqali huquqlarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qanoatlantiradilar, majburiyatlari hamda burchlarini bajaradilar. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari kimligidan, qanday ijtimoiy-siyosiy maqomga ega bo'lishidan qat'i nazar o'zlari ishtirok etayotgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bir-birlariga nisbatan teng huquqqa egadirlar [1].

Ma'lumki, fuqarolik huquq va burchlari qonunchilikda nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolar hamda yuridik shaxslarning, garchi qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlardan vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksining 8-moddasiga muvofiq, fuqarolik huquq va burchlari quyidagilardan vujudga keladi:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

2) qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hujjatlaridan;

3) sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;

4) qonun yo'l qo'yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7) asossiz boyib ketish natijasida;

8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9) qonunchilik fuqarolik-huquqiy oqibatlarining kelib chiqishi bilan bog'laydigan hodisalar natijasida.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, unga bo'lgan tegishli huquqlar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, shu jumladan, ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa – ish odobi qoidalariga ham rioya etishlari kerak.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste'mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik huquqlari protsessual qonunchilik yoki shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki hakamlilik sudi tomonidan himoya qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma'muriy tartibda himoya qilinadi. Ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Fuqarolik huquqlari quyidagi yo'llar bilan himoya qilinadi:

- huquqni tan olish;
- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;
- davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararni to'lash;
- neustoyka undirish;
- ma'naviy ziyonni qoplash;
- huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;
- sudning davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini qo'llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin.

Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilishiga yo'l qo'yiladi. Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish usullari huquqni buzishga mutanosib bo'lishi hamda huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi kerak.

Ahamiyatlisi shundaki, sub'yektlar o'z huquqlarini amalga oshirishiga hech kim to'sqinlik qilishga haqli emas. Agar shunday holat sodir bo'lsa, bunday to'siqlar huquq egasi tomonidan sudga murojaat etish orqali bartaraf etilishi mumkin. Ushbu qoida nafaqat barcha huquq sub'yektlari uchun, balki ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari uchun ham nazarda tutiladi.

Agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkin.

Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

Davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hujjat qabul qilinishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday zararining o'rni davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bekor qilingan, ularning mablag'lari yetishmagan yoxud davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining mablag'lari bo'lmagan taqdirda fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararining o'rni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Zarar qaysi davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining aybi bilan yetkazilgan bo'lsa, sudning qarori bilan zararining o'rnini qoplash ushbu organlar mansabdor shaxslarining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Fuqarolar va yuridik shaxslar fuqarolik huquqlarini o'z xohishlariga ko'ra o'z erki irodasi bilan o'z manfaatlarini ko'zlab qo'lga kiritadilar hamda amalga oshiradilar. Ular o'zlariga tegishli fuqarolik huquqlarini shu jumladan, bunday fuqarolik huquqlarini himoya qilishni ham o'z xohishlariga ko'ra hal etadilar [2].

Huquq sub'yektlari uchun fuqarolik huquqlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ushbu huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslar ham mavjud bo'lib, bu fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU, 2017.